O‘ZBEK MILLIY MUSIQA MADANIYATINING JONKUYAR FIDOYISI: DADAXO‘JA SOTTIXO‘JAYEV

G‘ulomov Nizomiddin Latifjon o‘g‘li,
Respublika musiqa va san’at texnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mohir doira ijrochisi Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevning hayoti, ijodiy faoliyati va o‘zbek milliy musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi yoritilgan. San’atkorning maqom ijrochiligidagi mahorati, Yunus Rajabiy bilan ijodiy hamkorligi, milliy musiqiy merosni saqlashdagi xizmatlari hamda ustoz-shogird an’analarini davom ettirishdagi o‘rni bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev, doira ijrochiligi, maqom san’ati, Yunus Rajabiy, Shashmaqom, ustoz-shogird an’analari.*

Аннотация. *В статье освещаются жизнь, творческая деятельность и вклад выдающегося исполнителя на дойре Дадаходжи Соттиходжаева в развитие узбекского национального музыкального искусства. Рассматриваются его исполнительское мастерство в искусстве макома, творческое сотрудничество с Юнусом Раджаби, заслуги в сохранении национального музыкального наследия и роль в продолжении традиций «устоз–шогирд» (учитель–ученик).*

Ключевые слова: *Дадаходжа Соттиходжаев, исполнительство на дойре, искусство макома, Юнус Раджаби, Шашмаком, традиции «устоз–шогирд».*

Abstract. *This article examines the life, artistic career, and contribution of the distinguished doira performer Dadakhoja Sottikhojayev to the development of Uzbek national music. It discusses his performance skills in maqom music, creative collaboration with Yunus Rajabiy, contributions to preserving the national musical heritage, and role in continuing the master–apprentice tradition.*

Keywords: *Dadakhoja Sottikhojayev, doira performance, maqom art, Yunus Rajabiy, Shashmaqom, master–apprentice tradition.*

XX-asrga kelib o‘zbek musiqa san’ati taraqqiyotining yangi bosqichi boshlandi. Asrlar davomida shakllanib kelgan an’anaviy san’at turlarining takomillashuvi natijasida yangi ijodiy va ijrochilik maktablari vujudga keldi. Ayniqsa, Yevropa musiqa madaniyatining kirib kelishi hamda ovoz yozish texnologiyalarining rivojlanishi milliy musiqiy merosni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etdi. Musiqiy asarlarning magnit

tasmalarga yozib olinishi, notaga ko‘chirilishi va ilmiy jihatdan qayd etilishi natijasida xalqimizning bebaho san’at durdonalarini umrboqiy saqlash imkoniyati yaratildi. Bu jarayonda o‘zbek musiqa madaniyatining rivojiga munosib hissa qo‘shgan bastakorlar, kompozitorlar, ijrochilar hamda musiqashunos olimlarning xizmatlari alohida e’tirofga loyiqdir.

O‘zbek xalq musiqa san’atini doira cholg‘usisiz tasavvur etish mushkul. Mazkur cholg‘u o‘zining jozibador usullari va boy ijro imkoniyatlari bilan milliy musiqamizning ajralmas qismiga aylangan. Turli marosimlar, to‘y-tomoshalar, xalq sayillari va tantanali tadbirlarda xonandalar ijrosi, sozandalar nag‘malari hamda raqqosalar chiqishlariga doira jo‘rlik qiladi. Doira sadolari xalqimiz hayotida quvonch, bayram va shodlik timsoli sifatida qaraladi. Shu bois uzoqdan yangragan doira ovozi ko‘pincha tantana va xursandchilik muhitining mavjudligidan darak beradi.[18]

O‘zbek doira ijrochiligi san’atining bugungi kungacha o‘zining boy an’analari va betakror uslublarini saqlab qolishi, shuningdek, uning negizida yangi ijrochilik yo‘nalishlarining shakllanishida ko‘plab ustoz san’atkorlarning xizmatlari beqiyosdir. Xalqimizning bebaho musiqiy merosini avloddan avlodga yetkazishda va uni yanada boyitishda Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Abulqosim To‘ychiyev, Muhammadqul ota Mullajonov, To‘ychi va G‘afur Inog‘omovlar, G‘afur Azimov, Rahim Isaxo‘jayev, Anvar Baraev, Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev, Hojiqurbon Hamidov (Hoji Tam-tam), Boltaboy Sharipov, Akbar Yo‘ldoshev (Malla Polvon), Mirjalil Mirholiqov, Ubaydulla Mahmudov, Qahramon Dadayev, Erkin To‘ychiyev, Ravshan Akbarbekov va Odil Kamolxo‘jayev kabi mohir doirachilar munosib hissa qo‘shganlar. Ularning serqirra ijodiy faoliyati, o‘ziga xos ijro uslublari hamda ustoz-shogird an’analarini davom ettirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari natijasida doira san’ati milliy musiqa madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlanib, bugungi avlodga yetib keldi.[19]

Doira ijrochilik san’ati tarixida o‘ziga xos maktab yaratgan, mohir sozanda, iste’dodli ijodkor, ustoz-murabbiy hamda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevning faoliyati milliy musiqa madaniyatimiz rivojida alohida o‘rin tutadi. U nafaqat yuksak mahoratga ega ijrochi, balki mohir tashkilotchi, maqom usullarining chuqur bilimdoni va ko‘plab yosh doirachilarni tarbiyalagan fidoyi ustoz sifatida ham e’tirof etiladi. Shuningdek, uning askiyachilik san’atidagi faoliyati ham xalq orasida katta shuhrat qozongan.

[18] D.Uzoqov. Ustozlardan doira saboqlari. Doira uchun asarlar to’plami. Musiqa nashriyoti, Toshkent: 2014-yil, 7-s.
[19] D.Islomov. Maxsus cholg’u. (An’anaviy doira ijrochilik usullari) (5111000-Kasb ta’limi: 5151600-Xalq ijodiyoti (cholg‘u ijrochiligi) yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). Toshkent:. 2019-yil, 5-s.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev o‘zbek maqom san’atini saqlash va rivojlantirish yo‘lida ulkan xizmatlar ko‘rsatgan san’atkorlardan biridir. U O‘zbekiston xalq artisti, akademik, bastakor va sozanda Yunus Rajabiy bilan hamkorlikda maqom ansamblining shakllanishi va rivojlanishida faol ishtirok etgan. Ushbu ijodiy hamkorlik natijasida maqom turkumlariga kiruvchi ko‘plab kuy va ashulalar yozib olinib, maxsus plastinkalarga muhrlandi. Bu esa milliy maqom merosining saqlanib qolishi va keyingi avlodlarga yetib borishida muhim ahamiyat kasb etdi.

San’atkorning ijodiy faoliyati faqat maqom ansambli bilan cheklanib qolmagan. U turli ijodiy jamoalar, teatr orkestralari, O‘zbek davlat estrada orkestri hamda xalq cholg‘ulari orkestrlarida samarali mehnat qilib, o‘zining yuksak ijrochilik mahoratini namoyon etgan. Uning serqirra faoliyati o‘zbek musiqa madaniyatining muhim sahifalaridan biri hisoblanadi.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev 1921-yil 23-fevralda Toshkent viloyatining Parkent tumanida Sotvoldixo‘ja oilasida dunyoga kelgan. Uning nasl-nasabi tarixan “xo‘jalar” sulolasiga mansub bo‘lib, oila ma’naviy va diniy qadriyatlarga sodiq muhitda yashagan. Biroq XX-asrning dastlabki yillarida sobiq sovet tuzumining mafkuraviy siyosati natijasida diniy tabaqa vakillariga nisbatan keskin tazyiqlar kuchaydi. Ayniqsa, 1930-yillarda amalga oshirilgan qatag‘on siyosati ko‘plab oilalar qatori Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevning oilasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Uning otasi Sotvoldixo‘ja ham o‘sha davrdagi repressiya siyosatining qurbonlaridan biri bo‘lib, oilaning hayotida og‘ir sinovlar yuzaga keldi.[20] XX asrning dastlabki yillarida sobiq sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qatag‘on siyosati natijasida ko‘plab ziyolilar, ilm-fan vakillari va jamiyatning nufuzli qatlamlari ta’qib ostiga olinib, uzoq hududlarga surgun qilindi. Bu davr mamlakat tarixida murakkab va ziddiyatli jarayonlardan biri sifatida qayd etilgan.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev ham bolalik chog‘idayoq hayotning og‘ir sinovlariga duch keldi. To‘qqiz yoshida ota-onasidan ayrilib, yetimlikning mashaqqatlarini boshidan kechirishiga to‘g‘ri keldi. Shunga qaramay, unda yoshligidan musiqa san’atiga, ayniqsa doira cholg‘usiga nisbatan katta qiziqish va mehr shakllandi. U madaniy hayot markazi hisoblangan choyxonalarda, turli marosimlar, to‘y-hashamlar va xalq yig‘inlarida ijodkorlarning chiqishlarini kuzatib, milliy musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqishini tobora kuchaytirib bordi.

Dastlab turli to‘garaklarda, keyinchalik esa karnay-surnay jamoalari tarkibidagi sozandalardan saboq olgan yosh Dadaxo‘ja amaliy ijrochilik sirlarini o‘rganishga kirishdi. Musiqaga bo‘lgan qiziqishi uni andijonlik dorbozlar jamoasiga

[20] Дадахўжа Соттихўжаевнинг қизлари Рўзахон Исақова (Соттихўжаева) билан суҳбатдан. Тошкент вилояти, Янгийўл шаҳри, Мажнунтол кўчаси 69-уйда 17-декабр, 2023 йил.

olib keldi. Mazkur jamoa tarkibida u ijrochilik tajribasini boyitib, Farg‘ona vodiysi san’at muhitiga kirib bordi. Ana shu davrdan boshlab uning professional san’at yo‘lidagi faoliyati shakllana boshladi.

1930-yillarning oxirlarida Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev Andijon viloyat musiqali drama teatriga sozanda sifatida ishga qabul qilinadi. Teatr faoliyati davomida u taniqli surnaychi va qo‘shnaychi Ahmadjon Umrzoqovdan Farg‘ona ijrochilik maktabi an’analari hamda mumtoz musiqa sirlarini o‘rganadi. Ayniqsa, maqom usullarining nazariy va amaliy jihatlarini puxta egallashga alohida e’tibor qaratadi.

Shuningdek, u mashhur qiziqchi va san’atkor Yusufjon qiziq Shakarjonovdan sozandalik, qo‘shiqchilik, lapar va yalla ijrochiligi hamda askiyachilik an’analarini o‘rgandi. O‘zbekiston xalq hofizi Jo‘raxon Sultonov esa unga milliy musiqa san’ati, ijrochilik madaniyati va sahna tajribasining nozik jihatlarini o‘rgatdi. Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev ustozlaridan nafaqat kasbiy mahorat, balki san’atkor odobi, insoniy fazilatlar, sahna madaniyati, halollik, rostgo‘ylik va hozirjavoblik kabi muhim sifatlarni ham o‘zlashtirdi. Shu sababli u zamondoshlari orasida samimiyligi, insonparvarligi va zukkoligi bilan katta hurmat qozongan.

1939-yilda u ko‘plab taniqli san’atkorlar qatorida Yangiyo‘l musiqali drama teatriga faoliyat yuritish uchun taklif etiladi. Mazkur ijodiy muhitda To‘xtasin Jalilov, Kamtar Otaboyev, Lutfixonim Sarimsoqova, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov va Saodat Qobulova kabi o‘zbek san’atining yirik namoyandalari bilan hamkorlikda ishlaydi. Ushbu davr san’atkorning ijrochilik mahorati shakllanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi.

Keyinchalik u 1957-yilgacha “O‘zbek davlat estradasi” tarkibida faoliyat olib borib, o‘sha davrning taniqli estrada xonandalari bilan bir sahnada ijod qildi. 1957-yilda esa O‘zbekiston Davlat radiosi qoshidagi O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga sozanda sifatida ishga qabul qilinadi. Ikki yil davomida ushbu jamoada samarali faoliyat yuritgach, 1959-yilda mashhur maqomshunos olim, bastakor va hofiz Yunus Rajabiy bilan birgalikda Maqom ansamblini tashkil etishda faol qatnashadi hamda ansambl tarkibida doirachi sifatida faoliyat boshlaydi.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev umrining oxirigacha ushbu jamoada samarali mehnat qildi. U o‘zbek mumtoz musiqa merosining magnit lentalar va grammofon plastinkalariga yozib olinishi jarayonida faol ishtirok etib, maqom ijrochiligida ritmik asosni ta’minlovchi yetakchi doirachilardan biri sifatida tanildi. Ayniqsa, 1966-yilda buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan yozib olingan “Shashmaqom” plastinkalarini yaratishda uning hissasi katta bo‘ldi. Mazkur yozuvlarda “Shashmaqom” turkumining asosiy cholg‘u va ashula

yo‘llari jamlangan bo‘lib, ular milliy musiqa merosini saqlash va targ‘ib qilishda muhim tarixiy ahamiyat kasb etadi.

1966-yilda buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan “Shashmaqom” turkumining cholg‘u va ashula yo‘llarini o‘z ichiga olgan maxsus grammofon plastinkalari nashr etildi. Mazkur nashr o‘zbek mumtoz musiqa merosini saqlash, targ‘ib qilish va kelajak avlodlarga yetkazish yo‘lidagi muhim madaniy voqealardan biri sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev o‘zbek mumtoz musiqa san’ati tarixida yuksak ijrochilik mahorati bilan alohida o‘rin egallagan san’atkorlardan biridir. U an’anaviy ijro yo‘nalishida faoliyat yuritgan ko‘plab xonanda va hofizlarning chiqishlariga doira jo‘rligini amalga oshirgan hamda O‘zbekiston radiosining oltin fondiga kiritilgan ko‘plab musiqiy asarlarning yozilishida bevosita ishtirok etgan. Uning ijrochilik uslubi mukammalligi, puxta texnik tayyorgarligi, maqom usullarining aniq va me’yoriy talqini hamda badiiy ifodaning betakrorligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ustoz Ahmadjon Umrzoqovdan o‘rgangan mumtoz usullar tizimi va ularni ijro amaliyotida qo‘llash tajribasi bugungi avlod ijrochilari uchun muhim ijodiy maktab vazifasini o‘tamoqda.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev xalq sayillari, bazm va tomoshalarda ijro etiladigan chaqiriq usullarining ham mohir ijrochisi sifatida tanilgan. Uning ijodida yakkanavoz va jo‘rnavozlik ijrochiligi o‘ziga xos badiiy mukammallik kasb etgan. San’atkor maqom ijrochiligida usullarning asl ko‘rinishini saqlash tarafdori bo‘lib, “maqom usullari aniq, ravon va asl holicha ijro etilishi kerak” degan tamoyilga amal qilgan. Uning fikricha, maqom usullarining badiiy jozibasi va ichki mazmuni ularning tabiiy shaklida mujassam bo‘lib, ularga ortiqcha bezak yoki sun’iy o‘zgartirishlar kiritish maqom ijrochiligining mohiyatiga zid hisoblanadi.

Ustoz san’atkor o‘zining ko‘p yillik faoliyati davomida bir qator iste’dodli shogirdlarni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Xususan, Tojiali Olimov, Sobir Saibikromov hamda Rahmatilla va Qudratilla Samadovlar uning ijodiy an’analarini davom ettirgan fidoyi shogirdlar sifatida e’tirof etiladi. Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevning milliy musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan munosib hissasi davlat tomonidan ham munosib baholangan. 1983-yilda unga uzoq yillik samarali ijodiy va ijrochilik faoliyati uchun “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni berildi.

Mashhur doira ijrochisi va mohir ustoz Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev 1992-yil 17-sentyabrda Toshkent viloyatining Yangiyo‘l shahrida vafot etdi. U Yangiyo‘l shahridagi “Oltinobod” qabristoniga dafn etilgan. San’atkorning boy ijodiy merosi, ijrochilik an’analari va pedagogik faoliyati bugungi kunda ham shogirdlari,

farzandlari hamda milliy musiqa san’ati ixlosmandlari xotirasida munosib davom etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исломов Д. Доира санъати дарғалари: монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2019.
2. Исломов Д. Мозийдан садо: монография. – Тошкент: Extremum Press, 2015.
3. Исломов Д. Махсус чолғу. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2016.
4. Исломов Д. Шарқ мусиқаси тарихидан: монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2017.
5. Исломов Д. Устозлардан доира сабоқлари. – Тошкент: Мусиқа, 2014.
6. Камолхўжаев О., Левиев А. Доира дарслиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.